

используемое для их выпойки. Вышеуказанные данные также могут служить для оценки экологического состояния данного региона.

Список литературы

1. Государственный стандарт Узбекистана. Питьевая вода. Гигиенические требования и контроль за качеством. O‘zDSt 950:2011. Ташкент 2011. - 18 стр.
2. Государственный стандарт Узбекистана. Источники централизованного хозяйственно-питьевого водоснабжения. Гигиенические, технические требования и правила выбора. O‘zDSt 950:2011. Ташкент 2011. - 11 стр.
3. Яхяев, Б. С. Комплексное использование кормовых добавок в кормлении овец / Б. С. Яхяев // Охрана окружающей среды - основа безопасности страны : Сборник статей по материалам Международной научной экологической конференции, посвященной 100-летию КубГАУ, Краснодар, 29–31 марта 2022 года / Ответственный за выпуск А. Г. Коцаев. – ФГБОУ ВО «Кубанский государственный аграрный университет имени И. Т. Трубилина»: 2022. – С. 216-217.
4. Яхяев, Б. С. Оборудование для культивации микроводоросли в условиях каракулеводческих фермах / Б. С. Яхяев // Молодой специалист. – 2023. – № 7(16). – С. 3-8.
5. Яхяев, Б. С. Эффективность использования кормовых добавок при откорме каракульских баранчиков / Б. С. Яхяев // Аграрная наука на современном этапе: состояние, проблемы, перспективы : материалы V научно-практической конференции с международным участием, Вологда ; Молочное, 21–25 февраля 2022 года. – Вологда: Вологодский научный центр Российской академии наук, 2022. – С. 219-223.

UO‘K: 636.085.54

“BAROKAT” YEMINI QORAKO‘L QO‘ZILAR O‘SISH KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI

M.Normuminova-tayanch doktorant,
A.X.Xatamov-q.x.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada ekstruderlangan “barokat” yemining qorako‘l qo‘ylarining tug‘ilgandan 4,5 va 6 oylikkacha bo‘lgan davrda o‘shish ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qorako‘l qo‘ylari, o‘shish, , ekstruderlangan, tug‘ilganda, 4,5 oylik, 6 oylik

Summary. The article presents the results of studies to determine the effect of extruded feed “barakat” on the growth performance of Karakol sheep in the period from birth to 4.5 and 6 months.

Key words: karakul sheep, growth, extruded feed, birth, 4.5 months, 6 months.

Kirish. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan qorako‘lchilik sub’ektlari, jumladan ma’suliyati cheklangan jamiyatlar va fermer xo‘jaliklarida sifatli va eksportbop qorako‘l teri va boshqa qorako‘lchilik mahsulotlari yetishtirishda innovatsion usullarda tayyorlangan ozuqa vositalaridan foydalanmoqda.

Qorako‘lchilik sub’ektlarida innovatsion usullarda tayyorlangan ozuqa vositalaridan foydalanish mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va tashkillashtirishda, qo‘ylarning biologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanishda, pirovard natijada sub’ektning iqtisodiy samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda qorako'l qo'ylarining o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hamda mahsuldorligini innovatsion usullarda tayyorlangan ozuqa vositalarini ratsionga qo'shish orqali oshirish imkoniyatlari mavjud.

Qo'ylarning o'sish va rivojlanishiga boshqa omillar bilan bir qatorda ularning etologiyasi ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarda barcha yosh davrlarida birinchi etologik tip qo'ylari avlodlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kuzatilgan. Bunda ozuqaga bo'lgan faol reaksiyasi ularning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan [4]

Turli xil gidropon ozuqalar bilan oziqlantirilgan bo'g'oz qo'ylardan olingan qo'zilar, keyinchalik shunday ozuqalar bilan 8 oylik davrgacha qo'shimcha oziqlantirish sharoitida eng yuqori natija bug'doy maysasi bilan oziqlantirilgan qo'ylardan olingan qo'zilarida kuzatilgan ya'ni boshqa guruhlardan 4,8-5,1 kg yuqori tirik vaznga ega bo'lgan [1].

Tadqiqotlarda innovatsion usulda tayyorlangan ozuqalar bilan oziqlantirilgan qorako'l qo'ylari tirik vazni, o'sish va rivojlanish, sutdorlik xususiyatlari va boshqa mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [5, 6, 7, 8]

Tadqiqot maqsadi. Qorako'l qo'ylarining ratsioniga ekstruderlangan yem kiritish orqali o'sish va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish tadqiqotning maqsadi qilib olindi.

Tadqiqot uslublari. Turli yoshdagi qo'ylarning (4-4,5 oylikda, 6 oylikda) tirik vazni va uning dinamikasi elektron tarozilarda o'lchash yordamida aniqlandi [2].

Tajribadan olingan ma'lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlandi. Bunda har bir belgining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi ($\bar{X}$), uning xatosi (S_x), o'zgaruvchanlik koeffitsienti (C_v) va guruhlar ko'rsatkichlari orasidagi farqlanishlarning ishonchlilik darajasi (P) aniqlandi [3].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar davomida turli qorako'l qo'ylarining o'sish ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari asosida olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Tajribadagi qorako'l qo'zilarining tirik vazn dinamikasi

Guruhlar	Qo'zilarining tirik vazni					
	Tug'ilganda		4-4,5 oylikda		6 oylikda	
	$\bar{X} \pm S_x$	C_v	$\bar{X} \pm S_x$	C_v	$\bar{X} \pm S_x$	C_v
Tajriba (n=30)	3,72 $\pm$ 0,3	5,3	28,9 $\pm$ 0,3	5,8	33,3 $\pm$ 0,4	6,2
Nazorat (n=30)	3,72 $\pm$ 0,4	6,7	25,6 $\pm$ 0,32	7,03	29,8 $\pm$ 0,42	7,6

Ushbu ma'lumotlar tahlilidan tajriba va nazorat guruhidagi qorako'l qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vazni o'rtasida deyarli farq bo'lmaganlari analoglar prinsipi asosida tanlab olindi. 4-4,5 oylikda tajriba guruhi nazorat guruhidagi qo'zilaridan tirik vazn ko'rsatkichi 3,3 kg 12,8%, 6 oylikda esa 3,5 kg 11,7% yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'ldi.

2-jadval

Qo'zilarining o'sish xususiyatlari, n=30

Guruhlar	Tug'ilgandan 4-4,5 oylikkacha			4-4,5 oylikdan 6 oylikkacha		
	Davr davomiyligi, kun	Mutloq o'sish, kg	Kunlik o'sish, g	Davr davomiyligi, kun	Mutloq o'sish, kg	Kunlik o'sish, g
Tajriba	135	25,18	187	45	4,4	98,0
Nazorat	135	21,88	162	45	4,2	93,0

Tajriba davomida qo'zilarining mutlaq o'sish ko'rsatkichi 4-4,5 oylikda tajriba guruhida 25,18 kg ni tashkil qilib, kunlik o'sish tajriba guruhida nazorat guruhidan 25,0 gram 15,4% yuqori bo'ldi.

6 oylikda tajriba guruhi, nazorat guruhidan kunlik o'sish 5,0 gram, 3,1% ga yuqori ko'rsatkich namoyon qildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra ekstruderlangan qo'shimcha oзуqalar bilan oziqlantirilgan qorako'l qo'ylari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkich namoyon qildi. Ekstruderlangan oзуqalar bilan oziqlantirilgan qorako'l qo'ylari tirik vazni qo'zilarining yosh davrlari bo'yicha tirik vazn dinamikasi ijobiy ko'rsatkichlar namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fayzullayev O.B., Shaptakov E.S., Qo'ylarni turli gidropon oзуqalar bilan oziqlantirib burdoqilash samaradorligi. Chovachilik va naslchilik ishi №2.2023 20-21 b.

2. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд-во селхоз литературы, журналов и плакатов, 1963. 310 с

3. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. -256 с.

4. Xatamov, A. (2019). Turli etologik tipdagi qoragalpoq sur qorako'l qo'ylarining tirik vazn ko'rsatkichlari vauning dinamikasi. Chorvachilik Va Naslchilik Ishi Jurnal. 2019 Y. №02. 11-12 B.

5. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>

6. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – C. 127-131.

7. Xatamov, A., & Qozoqov, J. (2023). Qorako'l qo'ylari sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibiga probiotiklarning ta'siri. Chorvachilik Va Naslchilik Ishi Jurnal. 2023 Y. №03. 26-28 B.

8. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 10. – C. 130-132.

UO'K: 636.32/38.088.3.

AHOLINI SIFATLI GO'SHT MAHSULOTI BILAN TA'MINLASHDA QO'YCHILIKNING AHAMIYATI

D.Yu.Abduzairova-Rangli qorako'l qo'ylari seleksiyasi
bo'limi mudiri, q.x.f.f.d (PhD).

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada aholini sifatli go'sht mahsuloti bilan ta'minlashda qo'ychilik tarmog'ining ahamiyati va o'rni, go'sht mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari borasidagi adabiyotlar tahlili natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat muammosi, qo'ychilik, tez yetiluvchanlik, go'sht mahsuldorligi.

Annotation. The article presents the results of the analysis of the literature on the importance and role of the sheep breeding industry in providing the population with quality meat products, as well as the possibilities of increasing meat productivity.

Key words: food problem, sheep breeding, early maturity, meat productivity.

Bugungi kunda butun dunyoda oziq-ovqat havfsizligi global muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Sababi, aholi soni yildan yilga oshib borayotgan bir davrda kimyoviy vositalarsiz, toza va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish qiyinlashmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda iqlim o'zgarishlari ham jiddiy zarar berishi bilan bir qatorda, aholi sonini oshib borishi vaziyatni yanada og'irlashib borishini ta'minlayapti. Go'sht